



XALQ DEPUTATLARI QO'QON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2022 йил «25» март

VI-45-28-11-166-K/22

Кўкон шаҳар ҳокимлиги

Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 105-moddasi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 23-moddasi, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8, 10, 11 va 12-moddalariga muvofiq, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi 2022 yil 16 martdagi KQ-320-IV-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi 2022 yil 16 martdagi "Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi KQ-320-IV-sonli qarori qabul qilinganligi, mazkur qaror bilan fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari)ning navbatdagi saylovi 2022 yilning may oyida o'tkazilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Mazkur o'tkaziladigan fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovida 68 nafar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2022 yil may oyida fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha shahar tadbirlar rejasi **1-ilovaga** muvofiq;

Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va

o‘tkazishga ko‘maklashuvchi komissiya (kelgusi o‘rinlarda – ko‘maklashuvchi komissiya deb yuritiladi) tarkibi **2-ilovaga** muvofiq;

Fuqarolar yig‘inlari raislarini (oqsoqoli) saylovini tashkil etish yuzasidan xududlarga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasining a‘zolari **3-ilovaga** asosan birlashtirilgan.

fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovi bo‘yicha saylov byulleteni namunasi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Ko‘maklashuvchi komissiyasi a‘zolari joylarda fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga yuzasidan MFYlar kesimida tashkil etiladigan ishchi guruxlarga amaliy yordam ko‘rsatsin.

5. Shahar hokimining o‘rinbosarlari Sh.Dexkanov, shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Aliyev), Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (B.Po‘latov)lar fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishda fuqarolar yig‘inlariga ko‘maklashish, zarurat bo‘lganda ularni binolar, transport va aloqa vositalari bilan ta‘minlash choralari ko‘rsin.

6. Shahar IIB (N.Sultonov), Milliy gvardiya bilan hamkorlikda fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlasin.

7. Shahar Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i K.Sirojiddinovga shahar Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi markazi boshlig‘i G‘.Mirzamaxmudov bilan birgalikda fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovi o‘tkaziladigan joylarda tibbiyot punktlari faoliyatini yuqori darajada tashkil etsin hamda sanitariya-gigiyena talablari va karantin qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilsin.

8. Shahar hokimligi axborot xizmati (U.Norboyev)ga fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o‘tkazish jarayonlarini OAVda keng yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

9. Qo‘qon shahridan saylangan xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari ko‘maklashuvchi komissiyalari tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etishi tavsiya etilsin.

10. Ko‘maklashuvchi komissiyaga fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovi yakunlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirsin hamda 2022 yil 8 iyunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashiga

axborot bersin.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Dexkanov va xalq deputatlari shahar Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi M.Aminovalar zimmasiga yuklansin.

12. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



M.Usmonov

Xalq deputatlari Qo‘qon shahar Kengashining
2022 yil 25 martdagi
VI-45-28-11-166-K/22-son qaroriga
1-ilova

**2022 yilning may oyida fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini
tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha**

TADBIRLAR REJASI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Tayyorgarlik bosqichi (fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy chora-tadbirlar)				

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalarini tuzish, komissiyalar yig'ilishini o'tkazish	1. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalarini tuzish. 2. Komissiya yig'ilishini o'tkazish va unda quyidagi masalalarni ko'rib chiqish: - komissiya ish rejasini tasdiqlash; - komissiya a'zolarini mahallalarga biriktirish; - fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini fuqarolar yig'ini yig'ilishi shaklida hamda fuqarolarning vakillari yig'ilishi shaklida o'tkazishni ko'rib chiqish; - saylov yoshiga to'lgan fuqarolar umumiy sonining kamida o'n ikki foizi miqdorida fuqarolar yig'inlari kesimida vakillik normasini belgilash; - ishchi guruhlarni tuzish bo'yicha fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish jadvalini tasdiqlash; - Ishchi guruhlardan fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlarga doir hujjatlarni qabul qilish muddati va tartibini belgilash kabi boshqa masalalarni ko'rib chiqish.	2022 yil 25 martgacha	Shahar Ko'maklashuvchi komissiyasi, xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati,
3.	O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyatini mahallalar kesimida tushuntirish	1. "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonun mazmun-mohiyatini mahallalarda tushuntirish maqsadida alohida reja-jadval ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Huquqshunos va soha mutaxassislari tomonidan mahallalarda O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonuni mazmun-mohiyatini tushuntirish.	2022 yil 25 martgacha reja-jadval asosida	Shahar mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Po'latov), Adliya bo'limi (E.Maxmudov)

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
5.	“Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyatini keng tushuntirish, aholini saylov jarayonlarida faolligini oshirishga qaratilgan teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, ijtimoiy roliklar hamda maqolalar tayyorlash	1. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo‘yicha media-reja ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, ijtimoiy roliklar ssenariysini ishlab chiqish. 3. Tayyorlangan teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, ijtimoiy roliklar va maqolalarni ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish	2022 yil 25 martgacha media-reja asosida	Shahar hokimligi axborot xizmati (U.Norboyev), shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (B.Po‘latov), shahar Ko‘maklashuvchi komissiyasi (---),
6.	Saylov xarajatlari uchun mablag‘ ajratish	Fuqarolar yig‘inlari raislar (oqsoqollari) saylovini bo‘yicha xarajatlar smetasi	2022 yil 31 martgacha	Shahar ko‘maklashuvchi komissiyasi, Moliya bo‘limi (L.Mamadjanov), shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (B.Po‘latov)
7.	Hududlar, fuqarolar yig‘inlari kesimida saylov yoshiga to‘lgan fuqarolarning umumiy ro‘yxatini shakllantirish	1. Hududlar, fuqarolar yig‘inlari kesimida saylov yoshiga to‘lgan fuqarolarning umumiy soni va ro‘yxatini shakllantirish bo‘yicha so‘rovnomalar yuborish. 2. Saylov yoshiga to‘lgan fuqarolarning umumiy soni bo‘yicha to‘plangan ma‘lumotlarni umumlashtirish.	2022 yil 31 martgacha	Shahar ko‘maklashuvchi komissiyasi, shahar statistika bo‘limi, IIB (N.Sultonov), shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (B.Po‘latov)
8.	Fuqarolar vakillarining yig‘ilishi shaklida saylov o‘tkaziladigan fuqarolar yig‘inlarini aniqlash	Fuqarolarning vakillari yig‘ilishi shaklida o‘tadigan fuqarolar yig‘inlari ro‘yxatini shakllantirish va sonini aniqlash.	2022 yil 31 martgacha	Shahar ko‘maklashuvchi komissiyasi, shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (B.Po‘latov)
9.	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi o‘tkaziladigan manzil va ob‘yektlarni aniqlash va ro‘yxatini shakllantirish	1. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi o‘tkaziladigan manzil va ob‘yektlarni aniqlash. 2. Tuman (shahar), fuqarolar yig‘inlari kesimida saylov o‘tkaziladigan manzil va ob‘yektlar ro‘yxatini shakllantirish.	2022 yil 31 martgacha	Shahar ko‘maklashuvchi komissiyasi, IIB (N.Sultonov), shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (B.Po‘latov)

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
10.	Ishchi guruhlarini tuzish yuzasidan fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish	<p>1. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni chaqirish to'g'risida kengash qarorini qabul qilish.</p> <p>2. Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish va unda quyidagi masalalarni ko'rib chiqish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ishchi guruhini tuzish va tarkibini tasdiqlash; - fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari belgilagan vakillik normasi asosida saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy sonining o'n ikki foizidan kam bo'lmagan miqdorida mavjud ko'chalar va uylarga taqsimlash; - ishchi guruh a'zolarini hududdagi hovlilar, uylar, ko'chalarga biriktirish hamda fuqarolar vakillarini saylash bo'yicha umumiy yig'ilishlarini o'tkazish jadvalini tasdiqlash; - fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari tomonidan belgilangan vakillik normasi asosida hududdagi mavjud hovlilar, uylar, ko'chalarga taqsimlash; - saylov o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash; - fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish masalalari yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish kabi boshqa masalalarni ko'rib chiqish. 	2022 yil 31 martgacha	Shahar ko'maklashuvchi komissiyasi, shahar mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Po'latov)

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
11.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalarni va ishchi guruhlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi va "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi qonunlar matnlari, qonunosti hujjatlari kiritilgan to'plam bilan ta'minlash	Respublika komissiyasi tomonidan tayyorlangan va chop etilgan qonunlar matnlari, qonunosti hujjatlari kiritilgan to'plamlarni ko'maklashuvchi komissiyalar va ishchi guruhlariga yetkazish.	2022 yil 31 martgacha	Shahar ko'maklashuvchi komissiyasi, shahar mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Po'latov)
12.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi shahar, tumanlar va shaharlar komissiyalari hamda ishchi guruhlar a'zolari uchun seminar-treninglar o'tkazish	1. Respublika komissiyasi tomonidan fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi shahar, tumanlar va shaharlar komissiyalari hamda ishchi guruhlar ishini tashkil etish bo'yicha tayyorlangan o'quv dasturi asosida tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq hududiy seminar-treninglar tashkil etish va o'tkazish.	2022 yil 20 aprelgacha	Shahar ko'maklashuvchi komissiyasi, Adliya bo'limi (E.Maxmudov), shahar mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Po'latov)
13.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish uchun yashirin ovoz berish kabinalari, saylov qutilari va zarur anjomlar bilan ta'minlash	Tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish uchun zarur miqdorda yashirin ovoz berish kabinalari, saylov qutilari va zarur anjomlar bilan ta'minlash.	2022 yil 20 aprelgacha	Shahar ko'maklashuvchi komissiyasi, shahar mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Po'latov)

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
14.	Saylov byulletenlarining fuqarolar yig'inlariga yetkazilishini ta'minlash	<p>1. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari hamda Ishchi guruhlar tomonidan saylov byulletenlarini ehtiyojdan kelib chiqib belgilangan tartibda chop etish.</p> <p>2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari tomonidan saylov byulletenlarini fuqarolar yig'inlariga yetkazilishini ta'minlash.</p>	<p>Saylovdan kamida besh kun oldin</p> <p>Saylov kundan kamida 5 kun oldin</p>	Shahar ko'maklashuvchi komissiyasi, shahar mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Po'latov)
<p>II. Asosiy bosqich (fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish, saylov yakunlarini chiqarish, OAVda e'lon qilish)</p>				

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
15.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko'rsatish	<p>1. Ishchi guruhi tomonidan tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar bo'yicha takliflar va ularning hujjatlarini tayyorlash.</p> <p>2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarning o'z nomzodi ko'rsatilishiga yozma roziligini ilova qilgan holda ularning hujjatlarini tuman (shahar) hokimi bilan kelishish uchun tegishli komissiyaga taqdim etish.</p> <p>3. Shahar hokimi tomonidan uch kun muddatda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ko'rsatilgan nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqib, o'zining asoslantirilgan xulosalarini ishchi guruhlarga topshirish uchun tegishli komissiyaga yuborish.</p> <p>4. Tegishli komissiya tomonidan bir kun muddatda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ko'rsatilgan nomzodlar bo'yicha tuman (shahar) hokimining asoslantirilgan xulosalarini ishchi guruhlarga yetkazish.</p>	<p>2022 yil 10 aprelgacha</p> <p>Saylovdan kamida o'n kun oldin</p>	Ishchi guruhlari, Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiya

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
16.	Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash hamda bu haqda tegishli hududda yashovchi fuqarolarni xabardor qilish. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar haqidagi axborotni fuqarolar yig'ini binosiga va guzarlarga osib qo'yish hamda veb-saytlarga joylashtirish	1. Tegishli hududda yashovchi fuqarolarga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish kuni, vaqti va joyi haqida xabar berish. 2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar haqidagi axborotni fuqarolar yig'ini binosiga va guzarlarga osib qo'yish. 3. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish, fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) o'tkaziladigan sana, vaqt va joy, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar to'g'risidagi axborotni Qoraqalpog'iston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi, shaharlar va Toshkent shahar mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmalarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish.	Saylovdan kamida besh kun oldin	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiya, Ishchi guruhlar
17.	Tuman va shaharlarda fuqarolar yig'inlari kesimida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish jadvalini tayyorlash	1. Ishchi guruhlardan fuqarolar yig'inlarida saylov o'tkazish kuni, vaqti, joyi haqidagi ma'lumotlarni olish va umumlashtirish. 2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari tomonidan fuqarolar yig'inlari kesimida saylovni o'tkazish jadvalini tasdiqlash.	2022 yil 20 aprelgacha 2022 yil 25 aprelgacha	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiya, Ishchi guruhlar
18.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish	Saylovni yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazish.	Jadvalga muvofiq	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiya

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
19.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovini o'tkazish	Qonunda belgilangan hollarda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovini o'tkazish.	Saylov o'tkazilgan kundan keyin 1 oy muddatda	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiya
20.	Respublika komissiyasiga axborot taqdim etish, shuningdek, fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni umumlashtirish	1. Saylov jarayoni to'g'risida Respublika komissiyasiga axborot berib borish. 2. Saylovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni umumlashtirish.	Har haftada Saylov yakunlari bo'yicha	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiya
21.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovining natijalarini chiqarish, ularni umumlashtirish, ko'rib chiqish va keng jamoatchilikka yetkazish uchun Respublika komissiyasiga taqdim etish	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, shaharlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar komissiyalari tomonidan saylov natijalarini chiqarish. 2. Saylov natijalari to'g'risida axborotni Respublika komissiyasiga taqdim etish. 3. Respublika komissiyasi tomonidan saylov natijalarini umumlashtirish va ko'rib chiqish.	2022 yil 5 iyungacha 2022 yil 8 iyungacha	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiya
23.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi o'tadigan ob'yektlarda xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash hamda tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish jadvaliga muvofiq saylov o'tadigan ob'yektlarida tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish. 2. Saylov o'tkaziladigan joylarda sanitariya-gigiyena talablari va karantin qoidalariga rioya qilinishini tashkil qilish.	Saylovni o'tkazish jadvaliga muvofiq	IIB (N.Sultonov), Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov)
III. Saylovdan keyingi bosqich(fuqarolar yig'ini organlarini shakllantirish, raislarini o'qitish, ularning bilimlarini oshirish)				

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
24.	Fuqarolar yig'ini kengashini shakllantirish, fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va taftish komissiyasini saylash	1. Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish. 2. Fuqarolar yig'ini kengashini shakllantirish. 3. Yig'in faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va taftish komissiyasini saylash.	Saylov natijalari bo'yicha 1 oy davomida	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, mahalla fuqarolar yig'inlari
25.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, raislarning huquq va majburiyatlarini tushuntirish va amaliyotda qo'llash bo'yicha o'quv seminarlari tashkil etish	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ni mahalla faoliyatiga oid bilim va malakasini oshirish bo'yicha o'quv seminarlari dasturini ishlab chiqish. 2. Hududlarda o'quv seminarlarini alohida reja asosida tashkil etish va o'tkazish.	2022 yil 15 iyungacha 2022 yil 1 iyulgacha	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Po'latov),
26.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari)ning bilimlarini oshirish maqsadida seminar-treninglar o'tkazish	1. Innovasion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) uchun o'quv dasturini ishlab chiqish. 2. Hududlar kesimida seminar-treninglar o'tkazish jadvallarini tasdiqlash. 3. O'quv mashg'ulotlarini alohida reja asosida tashkil etish va o'tkazish.	2022 yil 30 iyungacha 2022 yil 20 iyulgacha	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Po'latov),
27.	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari)ni axborot kommunikasiya texnologiyalari bo'yicha bilimlarini oshirish	1. Axborot kommunikasiya texnologiyalari vazirligi bilan birgalikda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) uchun o'quv dasturini ishlab chiqish. 2. Hududlar kesimida seminar-treninglar o'tkazish jadvallarini tasdiqlash. 3. O'quv mashg'ulotlarini alohida reja asosida tashkil etish va o'tkazish.	2022 yil 20 iyulgacha 2022 yil 20 avgustgacha	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Po'latov),

Xalq deputatlari Qo‘qon shahar
Kengashining
2022 yil 25 martdagi
VI-45-28-11-166-K/22-son qaroriga
2-ilova

**Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil
etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi**

T A R K I B I

Komissiya raisi			
1.	O‘.Tojiyeva	-	Xalq deputatlari shahar Kengashi deputati
Komissiya raisining o‘rinbosarlari			
2.	Sh.Dexkanov	-	Shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
3.	Ya.Rasulov	-	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari
4.	B.Po‘latov	-	Shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i
Komissiya kotibi			
5.	A.Nosirov	-	Xalq deputatlari Qo‘qon shahar kengashi kotibiyati bosh mutaxassisi
Komissiya a‘zolari			
6.	B.Xasanova	-	Shahar hokimining - oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i
7.	M.Aminova	-	Xalq deputatlari shahar Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiya raisi
8.	A.Ziyavutdinov	-	Xalq deputatlari shahar Kengashining “Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha raisi
9.	D.Alimova	-	Shahar Xalq ta’limi bo‘limi boshlig‘i
10.	L.Dexkonov	-	Qo‘qon neft va gaz sanoati texnikumi direktori

11.	M.Karimova	-	Ayollar reabilitasiya markaz raxbari
13.	E.Maxmudov	-	Shahar Adliya bo'limi boshlig'i
14.	N.Sultonov	-	Shahar Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i
15.	A.Yunusov	-	O'zbekiston yoshlar agentligi Qo'qon shahari bo'limi boshlig'i
16.	A.Mamatqulov	-	Shahar kengashi deputati
17.	N.Nasimov	-	Shahar hokimligi devonxona mudiri
18.	I.Boboxonov	-	Shahar kengashi deputati
19.	O.Ziyovutdinov	-	Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi shahar kengashi raisi
20.	M.Mirmaqsudov	-	Shahar kengashi deputati
21.	K.Sirojiddinov	-	Shahar Tibbiyot birlashmasi boshlig'i
22.	G'.Mirzamaxmudov	-	Shahar Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i
23.	U.Norboyev	-	Shahar hokimligi matbuot kotibi

Xalq deputatlari Qo‘qon shahar
Kengashining
2022 yil 25 martdagi
VI-45-28-11-166-K/22-son qaroriga
3-ilova

**Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish yuzasidan shahar
ko‘maklashuvchi komissiyasi a‘zolari**

RO‘YXATI

№	MFYlar nomi	MFYlarga birlashtirilgan ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi a‘zolari
1.	Davronbek MFY	L.Dexqonov
2.	Shaldiramoq MFY	Sh.Dexkanov
3.	Tolzor MFY	A.Ziyavitdinov
4.	G‘ishtli masjid MFY	A.Ziyavitdinov
5.	Vaqf chorsu MFY	A.Ziyavitdinov
6.	To‘g‘onboshi MFY	A.Ziyavitdinov
7.	Yalang‘och ota MFY	D.Alimova
8.	Yangi chorsu MFY	D.Alimova
9.	Qalandarxona MFY	D.Alimova
10.	Yog‘ bozori MFY	D.Alimova
11.	Charxini ko‘prigi MFY	M.Karimova
12.	Noib ko‘prigi MFY	M.Karimova
13.	Isfara guzari MFY	M.Aminova
14.	Qaymoqli guzar MFY	M.Aminova
15.	Misgarlik MFY	M.Aminova
16.	Degrezlik MFY	M.Aminova
17.	Kalvak guzari MFY	Sh.Dexkanov
18.	Nonvoylik guzari MFY	M.Karimova
19.	Shayxon MFY	M.Karimova
20.	G‘ishtko‘prik MFY	Sh.Dexkanov
21.	G‘alchasoy MFY	Sh.Dexkanov
22.	Parpashabof MFY	N.Nasimov
23.	Artizonbo‘yi MFY	A. Yunusov
24.	Temiryo‘lchi MFY	L.Dexqonov
25.	Qipchoqariq MFY	A. Yunusov
26.	Buloqboshi MFY	A. Yunusov
27.	G‘oziyog‘liq MFY	N.Nasimov
28.	Achchik ko‘l MFY	L.Dexqonov
29.	Chorchinor MFY	L.Dexqonov
30.	Sadoqat MFY	N.Nasimov

31.	Islomobod MFY	K.Sirojiddinov
32.	Qo'shchinor MFY	K.Sirojiddinov
33.	S.Abdulla MFY	N.Sultonov
34.	Marg'ilon darvozasi MFY	B.Po'latov
35.	Aziztepa MFY	D.Alimova
36.	A.Navoiy MFY	N.Sultonov
37.	Galabaqqollik MFY	K.Sirojiddinov
38.	To'xlimergan MFY	K.Sirojiddinov
39.	Oq oltin MFY	M.Aminova
40.	Nurafshon MFY	N.Sultonov
41.	Urganjibog' MFY	N.Sultonov
42.	At Termiziy MFY	N.Nasimov
43.	Navbaxor MFY	A.Ziyovutdinov
44.	Avg'onbog' MFY	O.Ziyovutdinov
45.	A.Zoxiriy MFY	O.Ziyovutdinov
46.	O'rmonbog' MFY	O.Ziyovutdinov
47.	Rayxon MFY	Ya.Rasulov
48.	Istiqlol MFY	Ya.Rasulov
49.	Obod MFY	Ya.Rasulov
50.	Mustaqillik MFY	Ya.Rasulov
51.	Zilol MFY	G'.Mirzamaxmudov
52.	Yangiobod MFY	G'.Mirzamaxmudov
53.	Bo'ston MFY	N.Nasimov
54.	Shirin MFY	N.Nasimov
55.	Istiqbol MFY	G'.Mirzamaxmudov
56.	Navro'z MFY	M.Karimova
57.	Do'stlik MFY	Sh.Dexkanov
58.	Bunyodkor MFY	N.Sultonov
59.	Oltin vodiy MFY	G'.Mirzamaxmudov
60.	Usta bozor MFY	Sh.Dexkanov
61.	Muqimiy MFY	B.Po'latov
62.	Shikorbegi MFY	B.Po'latov
63.	Quduklik MFY	D.Alimova
64.	Saodat MFY	A.Yunusov
65.	Sunbula MFY	M.Karimova
66.	A.Temur MFY	B.Po'latov
67.	Turkiston MFY	G'.Mirzamaxmudov
68.	Uzumzor MFY	L.Dexqonov

Xalq deputatlari Qo‘qon shahar
Kengashining
2022 yil 25 martdagi
VI-45-28-11-166-K/22-son qaroriga
4-ilova

**Qo‘qon shahar “Bunyodkor” mahalla
fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi bo‘yicha**

SAYLOV BYULLETENI

2022 yil ____ may

Rasm uchun joy	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi va tug‘ilgan yili	O‘zingiz yoqlab ovoz berayotgan nomzodning familiyasi qarshisida joylashgan bo‘sh katakka “+”, “ü” yoxud “x” belgilaridan birini qo‘ying
	GOFUROV SHOIR TURSUNOVICH , 1970 yilda tug‘ilgan	
	MUSAYeV SHUHRAT ZOKIROVICH , 1973 yilda tug‘ilgan	
	SULTONOV TOHIR HAYDAROVICH , 1980 yilda tug‘ilgan	
	ERGASHYeV BOTIR YO‘LDOSHYeVICH , 1975 yilda tug‘ilgan	

Agar byulletenning o‘ng tomonida joylashgan bittadan ortiq bo‘sh katakka “+”, “ü” yoxud “x” belgilaridan biri qo‘yilgan yoki bitta ham katakka bunday belgi qo‘yilmagan bo‘lsa, saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

Izoh: Har bir byulletenning orqa tomoniga ishchi guruhi rahbari va bir a‘zosi hamda fuqarolar yig‘iniga birlashtirilgan tuman (shahar) ko‘maklashuvchi komissiyasi a‘zosining imzosi qo‘yilib, fuqarolar yig‘inining muhri qo‘yilishi lozim.